

Qaynona-kelin hangomasi

Kelin tushirganimga chamasi ikki oycha bo'ldi. Shu desangiz kelinim rosa chaqqon, xushmuomala chiqib qoldi. Yelib-yugurib xizmatimni qiladi. "Oyijon choyingizni yangilab beraymi, oyijon oyoqingiz og'rimayaptimi...?"-deb atrofimda girdikapalak bo'ladi. Kecha g'alati ish bo'ldi. O'g'lim kelinim bilan birga qaynonasinikiga ketishgandi, mehmondan keldilar-u, ikkalasi ham indamay xonasiga kirib ketishdi. Kelinim sumkasini mahkam ushlab olgandi. Qiziq qudam nima berib yuboribdi, deb rosa qiziqdim. Kechqurun sekin yurib, kelinimni xonasining eshigiga quloq tutsam, sharmanda...

-Voy asalim, shirinim, shakarim, ko'zlaringiz buncha munchoqdek qop-qora bo'lmasa – deyabdi deng. Og'zim ochildi-qoldi. Xali bu kelinni yuvvoshgina, sodda ekan desam, ichidan pishgan mug'ombir chiqdi-yu, deb indamay yana xonamga qaytdim. Ertalab nonushtaga o'tirdik, kelinim xizmat qilyapti-yu, xa deganda xonasiga yugurib kiradi, birozdan so'ng yugurib chiqadi. O'g'lim indamay choy ichyapti.

-Menga qara-dedim o'g'limni ko'zlarini ko'rish uchun. O'g'lim hayron bo'lib qaradi. Rostdan ham ko'zlari qop-qora ekan. O'g'lim oyim nima derkin deb kutib turganini bilib, sir boy bermadim- tez-tez choyingni ich, ishga kech qolasan.

Kelinimda yana bir odat paydo bo'ldi. Avvalari men bilan ochilib-sochilib gaplashadigan kelinim, qo'li ishdan bo'shadi deguncha xonasiga yugurib kirib ketadi. Yana bir qarasam xonasiga piyolada sut ko'tarib kirib ketdi. Tovba, meni yonimda ichsa bir nima dermidim. Nima balo, bu kelinga bir narsa bo'ldimi, deb hayronman. Tushlikdagi ishiga esa sira tushunmadim. Bu safar, qum ko'tarib yuribdi. Qo'shnim Bodigulning uchta kelini bor. Balki, u nima gapligini bilar deb yoniga bordim.

Opa, bu kelingiz o'g'lingizga issiq-sovuq qilayotgan bo'lmasin-Bodigul jiddiy ohangda aytdi. Jon-ponim chiqib ketay dedi. "Qanday qilib?" degandek qaradim. Qo'shnim qarashimni tushundi va gapini davom ettirdi.

Sutni ishdan kelgandan keyin o'g'lingizga ichiradi, qumni esa yotoqi atrofiga sochadi, mana qarabsizki, o'g'lingiz kelingizni chizgan chizig'idan chiqmaydi. Uyga kelib nima qilsam ekan deb rosa o'yladim. O'g'lim ishdan kelgandan keyin ularni poylash uchun yana bordim. Ey, bu gaplarni eshitgandan ko'ra yer yorilib yerga kirib ketsam bo'lmasmidi.

Asalim qo'ysangizchi, yalamang qitig'im keladi, bo'ldi, bo'ldi deyapman... Shunaqa gaplarni aytib, xiring-xiring qilib kuladi. Xa, o'g'limni rostdan jodulab olganiga amin bo'ldim, jahlim chiqqanidan to'g'ri xonasiga bostirib kirdim. Xonaga kirib hayron bo'lib qotib qoldim. Kelinimni qo'lida oppoq bola mushuk, kelinim qo'rqqanidan dir-dir titrayapti, ko'zlarida yosh ham aylandi. O'g'lim esa divanda televizor pultini ushlab uxlab yotibdi. Mushuk tinmay kelinimni qo'lga goh suykalari, goh oppoq barmoqlarini yalab-yalab qo'yardi. Kelinim tushmagur uyda sichqon ko'rgan ekan. Sichqondan qo'rqarkan, uyidagi ona mushukning bir bolasini olib kelibdi. Meni mushuklarni yomon ko'rishimni bilib yashirib yuribdi. Ha aytgancha, bola mushukning ko'zlari rostdan ham munchoqdek qop-qora ekan.

Yon qo'shnim, jon qo'shnim

Qo'shnim Komilaxon bilan juda yaqinmiz. Orada bordi-keldimiz ham, mustahkam dugonchilikimiz ham bor. Shu desangiz, og'ir kunlarimda doimo yonimda hozir-u nozir. "Buyuring qo'shni, bizga nima xizmat"-deb turadi. Komilaxonning xo'jayinlari Rahim aka

ham juda yaxshi insonlar, u ham dadamiz bilan ulfatlar. Qo'shnilar juda ham kerakli insonlar ekanligini bir g'aroyib voqealardan keyin yaxshi anglab yetdim.

Kechqurun tashqarida supada qizim bilan uxlab yotgandim, bir payt boloxonada nimadir "gurs" etdi. O'zim bir quyon yurak emasmanmi, oldin vahima bosa boshladi, keyin sovuq ter qopladi. Xuddi birov ustimdan sovuq suv quygandek bo'ldi. Yana har xil tovushlar kela boshladi. Ustiga ustak dadamiz ham shaharda ishlashga ketgandi. Sekin o'rnimdan turdim, qo'shnim Komilaxonning devorini o'pirilgan joyi bor edi. Devor ham pastakkina emasmi, bir sakrab oshib tushdim. Qarasam er-xotin qo'shnilar ham mazza qilib, pishillab uxlab yotishibdi. Komilaxonni sekin turtidim: "Qo'shni, qo'shni, turing, tursangizchi!"-deb turtkilay boshladim. Jon-poni chiqib ketgan Komilaxon o'rnidan sapchib turdi.

- Voy, o'zizi bosing bu men qo'shningiz Jamilaman. Boloxona tarafda kimdir yuribdi. Shu desangiz yangi olgan velosipedimiz shu tarafda edi, o'g'ri bo'lsa olib ketib qolsa nima qilaman. Dadamizga nima deyman? Iltimos xo'jayningiz bir qarab bersin.

Komilaxon ham tushunadigan ayol emasmi, darrov erini uyg'otdi. Rahim aka telefonini fonarini yoqdi, sekin yurib boloxonaga o'tib ketdi. Besh daqiqalar o'tdi chamasi, qaytib keldi.

- To'g'rimizdagi Laziz aka borku, o'shani eshaki bo'shalib, siz tarafga o'tib ketibdi. Menimcha eshiklaringiz to'g'rima-to'g'ri joylashgani uchun ochiq eshikdan bemalol kiravergan. Hozir egasi bilan tutamiz, siz xavotirlanmang – Rahim aka shu gaplarni aytgandan keyin o'zimni ustimdan o'zim rosa kuldim. Yana bir safar esa kechqurun uyg'onib ketdim. Tashqariga qaragan oynadan yorug'lik tushaveradi. Yaxshilab eshitib yotsam, kimdir sandiqni ustiga taxlab qo'ygan ko'rpa-to'shaklarni pastga otyapti. Avval qo'rqanimdan ko'rpani yuzimga tortib yotdim, keyin o'g'ri bizni o'ldirib qo'ysa nima qilaman deya, yana jonajon qo'shnimnikiga o'tdim. Bu safar bir xayolim shu yerda yotgan terakni qalin shoxlaridan olmoqchi ham edim, agar o'g'ri qochsa shu shox bilan bir tushiraman deb reja ham tuzdim. Lekin darrov fikrimdan qaytdim, uyga kirsak singlim o'ziga joy solyapti. Yaqinimizdagi shifoxonada ishlaydi, bugun navbatchilik qilib kech qolgan ekan, to'g'ri bizni uyga kelibdi, bizni uyg'otgisi kelmay uyga kirib ketgan ekan. Bular shunchaki tushimovchiliklar bo'lsada, bo'lmagaykuya, ammo manashunaqa og'ir kunlarimda yordam beradigan yon qo'shnim, jon qo'shnim borligidan juda xursandman!

Armon...

(Rahmatli buvijonimga bag'ishlab)

Dekabr oylari edi. Havo unchalik sovuq ham emas, unchalik issiq ham emasdi. Buvimning tobi qochdi. Oyim buvimlarnikiga serqatnov bo'lib qoldi. Men oyim avvalgidek menga e'tibor berishini va avvalgidek cheksiz, qaynoq mehrini qumsardim. Men mahsus maktabda ta'lim olayotganligim uchun uyga haftaning shanba kuni kelardim xolos. Oyim o'qish joyimga mendan xabar olish uchun tez-tez borardi. Lekin shu kunlarda kelmaydigan bo'lishdi. Uyga borsam ham onam buvimlarnikiga ketadigan yoki ketgan bo'lar edi. Men ich-ichimdan xafa bo'lardim. Bu yoqda buvim og'ir ahvolda. Oyim "sen ham yur" desa turli bahonalar topardim. Ammo borgim kelardi. Biroq loqaydligim meni uyda qolishga majburlar, men nodon unga bo'ysunardim. Men buvim bu dunyoni tark etadi deb hech o'ylamasdim. U boqiy umr ko'radi deb o'ylardim. - Tuzalsin so'ng boraman- deb o'zimni o'zim aldab keldim.

Kunlar ketidan tunlar o'tdi. Biroq buvim tuzalmadi. Bobolarim va dadamni onasi bo'lmish buvimni ko'rmaganman, ular men tug'ilmasdan ancha oldin dunyodan ko'z yumushgan. Ularning qanday insonligini va yuz tuzilishlarini bilmayman. Yakka-yu yagona bo'lmish buvijonimning sochlari esa sutdek oppoq, sharsharadek uzun, qirra

burunli, yonoqlari qirmizi, ozg'in, ammo ko'zlari doimo umid va quvonch bilan chaqnab turguvchi inson bo'lganlar, men buni yaxshi eslayman.

O'qishlarim a'lo, xulqim namunali, sinf faollaridanman. Faqat men haliyam buvimni ko'rishga bormagan yomon nabiraman. Hafta oralig'ida ustozdan uyga ketish uchun ruhsat so'rasam bazo'r ko'nardi. Juma kuni qizlar bilan dars tayyorlab o'tirsam ustoz chaqirib qoldi. Nima demoqchi ekan deb darrov bordim.

-Bugun uyingga ketaver, senga ruhsat beraman - ustoz shunday dedi-yu, ammo negadir ko'zlarini olib qochdi.

-Nega?-deb so'radim ustozning yuziga hayron bo'lib qarab. Ustozning ko'zlaridan ma'no axatarar va nima uchun uyga javob berayotganiga sira tushunmasdim.

-Oying telefon qildi, ertaga buvingnikiga ketar ekan. Yana meni bolalik rashki tutdi, oyimni buvimdan rashk qildim. Onamni qizg'ondim, o'sha paytda men qizg'anayotgan onam ham farzand ekanligini mutlaqo unutmangandim.

Uyga qushdek uchib bordim. Uyga kirib borsam opam kir yuvib o'tirgan, onam opamning qilayotgan ishiga ma'yus boqib o'tirgandi. Salomlashganimdan keyin, darrov sevimli serialimni boshlanadigan vaqti bo'lganini bilib uni ko'rishga oshiqdim. Endi televizorni ustidan qandaydir matoni olib, tokga ulayotgandim opam:

- To'xta, yoqma! Buvimiz vafot etdilar - deb baqirdi. Men larzaga tushdim, turgan joyimda qotib qoldim, ustimdan bir chelak sovuq suv quygandek bo'lishdi, birozdan so'ng o'zimga ancha kelib olgach, o'zimni oyimning bag'riga otdim. Men yig'lay olmadim, ammo yuragimda allaqanday tugun paydo bo'ldi, tomog'imga nimadir tiqilib gapira olmadim. Borlig'im qahraton qishda turgandek muz qotgandi.

Ertasiga maktabga borib yum-yum yig'ladim. Buvimni ko'p ma'ralkalarida bo'ldim, ba'zilarida esa yo'q. Endi bo'lsa buvimni shu paytda borib ko'raolmaganimdan afsusdaman. Eng katta armonim mana shu loqaydligim tufayli vujudga keldi. Shu loqaydlik sabab, men buvimning so'nggi soniyalarida yonida bo'lolmadim.

Buvimni xonasiga kirsak karavoti eshik yonida bo'lib, yo'limizga termulib yotardilar. Buni qarangki, qabri ham kiravergan yerda, kichkinagina bo'lib turibdi. Bu qilgan ishimdan afsusdaman, mening eng katta armonim!

Xayitboyeva Tamara
“Kitob.uz” saytining
doimiy muhllisi